

## FARIDIDDIN ATTOR “ILOHIYNOMA” ASARIDA NUBUVVAT VA TAVHID TIMSOLLARINING BADIY TALQINI

TILAKOVA NAFOSAT

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17301473>

### KIRISH

Sharq adabiyoti tarixida tasavvuf falsafasi, nubuvvat (payg‘ambarlik) va tavhid (yakkaxudolik) g‘oyalari alohida o‘rin tutadi. Bu g‘oyalar nafaqat diniy tafakkurning, balki badiiy tafakkurning ham asosini tashkil etadi. Tasavvufning yirik namoyandalaridan biri — Shayx Farididdin Attor “Ilohiynoma” asari orqali Alloh va inson, ruh va jism, muhabbat va haqiqat o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqur falsafiy-badiiy tahlil qiladi. Mazkur asar Sharq mumtoz adabiyotida nubuvvat hikoyatlarining ramziy talqini va tavhid g‘oyasining badiiy ifodasini o‘zida mujassam etgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

### TADQIQOTNING ASOSIY MAQSADI

Tadqiqotning asosiy maqsadi — Farididdin Attor “Ilohiynoma” asarida nubuvvat va tavhid timsollarining badiiy talqinini aniqlash, ularning tasavvufiy manbalardagi falsafiy ildizlarini yoritishdir.

Vazifalar quyidagilardan iborat:

- “Ilohiynoma”dagi payg‘ambarlar obrazlarini tahlil qilish;
- Asarning tasavvufiy, falsafiy va didaktik qatlamlarini aniqlash.

### ASOSIY QISM

O‘zbek mumtoz adabiyoti badiiy olamida tasavvuf qanday o‘rin tutsa, tasavvuf va mumtoz adabiyot poetikasida payg‘ambarlar obrazi ham shunday ahamiyat kasb etadi. O‘zbek mumtoz adabiyoti g‘oyaviy-badiiy dunyosining muhim masalalari nubuvvat motivi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ayniqsa Sharq-islom olamida ma‘naviy-ma‘rifiy hayotning mohiyatini tashkil qiladi. “Ilohiynoma” asarida Attor payg‘ambarlar obrazidan ko‘p va xo‘b foydalangan. Hikoyatlar Attorga xos mahorat ila bitilgan. Ular orasidan payg‘ambarlar haqidagi hikoyatlari han alohida tahlil talab etadi. Nabiy siymolar badiiy obraz-timsollari esa har bir mumtoz ijodkorning mahsuldor ifoda tasvirlaridan sanaladi. O‘zbek mumtoz adabiyotida nubuvvat ahli obrazlari turli adabiy janrlarda badiiy timsol sifatida xilma-xil ramziy vazifalarni bajaradi, o‘ziga xos bir poetik olamni tashkil etadi. Nubuvvat motivi va obrazlari talqinida janriy shakllar rang-barangligi masalasi ham alohida e‘tiborni tortadi.

Farididdin Attor tasavvuf adabiyotining eng yirik siymolaridan bo‘lib, “Ilohiynoma” orqali inson ruhiyatining ilohiy kamolot sari sayrini badiiy obrazlar tizimi orqali ifoda etadi. Asarda Qur‘on qissalari, hadis manbalari hamda “Qisas al-anbiyo” tipidagi asarlardan ilhomlangan nubuvvat hikoyatlari o‘ziga xos ramziy ma‘noda talqin etilgan. Sharq an‘anaviy manbalari — Muhammad Sayyid Tantoviy “Qasas al-Qur‘on”, Tabariy “Ta‘rikh ar-Rusul va-l-Muluk”, Ibn Kasir “Al-Bidoya va-n-Nihoya”, Qutbiddin Rovandiy “Ta‘rikh al-Anbiya”, Ibn Arabiy “Fusus al-hikam”, Makorimiy Sheroziy “Qissahoi Qur‘on” kabi asarlarda nubuvvat va ilohiy hikmatlar falsafiy asosda yoritilgan. Attor bu manbalar asosida insonning ma‘naviy kamolot sari yo‘lini badiiy ifoda bilan boyitdi. “Ilahiy-noma”da Odam — insonning ilohiy martabasi; Ibrohim — sadoqat va ilohiy do‘stlik; Yusuf — go‘zallik va poklik timsoli; Muso — ilohiy qudrat va mo‘jizaviy hokimiyat; Iso — ruhiy uyg‘otuvchi murshid; Xizr — hikmat va donishmandlik timsoli sifatida talqin qilinadi. Bu timsollar orqali muallif ilohiy muhabbatning inson qalbidagi tajallisini ko‘rsatadi. Attor uchun tavhid — barcha mavjudotning yagona manbai bo‘lgan Haqni

anglash yo'lidir. U barcha payg'ambarlarni "tavhid va iymon darakchilari" sifatida tasvirlaydi. Shu jihatdan "Ilahiy-noma" Sharq falsafiy tafakkurida tavhid g'oyasining eng chuqur badiiy ifodalaridan biridir.

### **XULOSA**

Farididdin Attor o'zbek va jahon adabiyotiga ulkan hissa qo'shgan tasavvuf shoiridir. "Ilohiynoma" asari insonning ruhiy poklanish, muhabbat, sabr va haqiqat sari intilish yo'lini ramziy hikoyatlar orqali talqin etadi. Asarda nubuvvat mavzusi Qur'oniy qissalar bilan uzviy bog'liq bo'lib, unda barcha payg'ambarlar tavhid yo'lining ramziy ifodachilari sifatida ko'rsatiladi. Attor asarining badiiy va falsafiy qimmatini shundaki, u o'quvchini o'zini anglash, Haqni tanish va ruhiy kamolot sari yetaklaydi. Asar yakunida muallif:

*"Xudoyo, baski shul Attori xushgo'y,  
Etibdir nazm ila nomingni xushbo'y",*

— deya Allohni yod etish orqali o'zini ham "xushbo'y" qilganini, ya'ni Haq muhabbati bilan poklanganini ifoda etadi. Demak, "Ilohiynoma" nafaqat tasavvuf falsafasining badiiy yodgorligi, balki umuminsoniy ma'naviyat manbai sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Farididdin Attor. Ilahiy-noma. – Tehron, 1980.
2. Ibn Arabiy. Fusus al-hikam. – Qohira, 1972.
3. Muhammad ibn Jarir Tabariy. Ta'rikh ar-Rusul va-l-Muluk. – Bayrut, 1987.
4. Zohidov, T. Tasavvuf va Attor ijodi. – Toshkent, 2015.
5. Makorimiy Sheroziy. Qissahoi Qur'on. – Tehron, 1992.